

**QOVOQDOSH EKIN PATISSONNING SOLNISHKO VA SAMBRERO NAVLARINING
HOSILDORLIGINI STANDARTGA NISBATAN BAHOLASH**



Kenjayeva To'lg'onoy Rahmonovna
Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik
ilmiy-tadqiqot

instituti ilmiy tadqiqotchi

Telefon raqami: +99-899-572-91-33

kenjayeva67@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2528-2994>

Nurmatov Norqobil Jo'rayevich

Termiz davlat pedagogika instituti,

Kimyo-biologiya kafedrasini mudiri, q.x.f.d.

ilmiy rahbar

Telefon raqami: +99-897-073-14-12

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-8825-646X>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada patisson (Cucurbita pepo L.) ekinining "Solnishko", "Sambbrero" navlarining biologik va xo'jalik jihatdan qimmatli belgilarini standart "Oq-13" naviga nisbatan taqqoslab o'rganish natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar davomida hosildorlik, bitta o'simlikdan olingan meva soni va meva massasi ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko'ra, "Solnishko" va "Sambbrero" navlari standart navga nisbatan yuqori hosildorlik ko'rsatdi. Patissonning "Solnishko" va "Sambbrero" navini ishlab chiqarishga joriy qilish maqsadida Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani «Choriyorov Eliyor» fermer xo'jaligi dalalariga ekib parvarishlandi.

Kalit so'zlar: patisson- qovoqdosh ekin, Solnishko, Sambbrero, standart nav, biometrik ko'rsatkichlar, taqqoslama tahlil, iqtisodiy samaradorlik.

**ОЦЕНКА УРОЖАЙНОСТИ СОРТОВ ТЫКВЫ «СОЛНЫШКО» И «САМБРЕРО» В
СРАВНЕНИИ СО СТАНДАРТОМ.**

Кенжаева Тўлғоной Раҳмоновна

Научный сотрудник

Научно-исследовательский институт овощных, бахчевых культур и картофелеводства

Телефон: +99-899-572-91-33

E-mail: kenjayeva67@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2528-2994>

Нурматов Норқобил Жўраевич

Заведующий кафедрой химии и биологии

Термезский государственный педагогический институт

Доктор сельскохозяйственных наук (DSc)



Научный руководитель

Телефон: +99-897-073-14-12

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-8825-646X>

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены результаты сравнительного исследования биологических и экономически значимых признаков сортов тыквы (*Cucurbita pepo* L.) «Солнишко» и «Самбреро» по сравнению со стандартным сортом «Ок-13». В ходе исследования были проанализированы показатели урожайности, количества плодов на растении и массы плодов. По полученным результатам, сорта «Солнишко» и «Самбреро» показали более высокую урожайность, чем стандартный сорт. Для внедрения сортов тыквы «Солнишко» и «Самбреро» в производство они были высажены и выращены на полях хозяйства «Чориёров Элиёр» Шорчинского района Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: культура кабачков и цуккини, Солнишко, Самбреро, стандартный сорт, биометрические показатели, сравнительный анализ, экономическая эффективность.

EVALUATION OF THE YIELD OF THE SOLNISHKO AND SAMBRERO CULTIVARS OF PUMPKINS IN COMPARISON WITH THE STANDARD

Kenjayeva To'lg'onoy Rahmonovna

Researcher

Research Institute of Vegetable Crops, Melons, and Potato Growing

Phone: +99-899-572-91-33

Email: kenjayeva67@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2528-2994>

Nurmatov Norqobil Jo'rayevich

Head of the Department of Chemistry and Biology

Termiz State Pedagogical Institute

Doctor of Agricultural Sciences (DSc)

Scientific Supervisor

Phone: +99-897-073-14-12

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-8825-646X>

ABSTRACT

This article presents the results of a comparative study of the biological and economically valuable traits of the squash (*Cucurbita pepo* L.) varieties “Solnishko”, “Sambbrero” in comparison with the standard variety “Oq-13”. During the research, the indicators of yield, number of fruits per plant and fruit mass were analyzed. According to the results obtained, the varieties “Solnishko” and “Sambbrero” showed higher yields than the standard variety. In order to introduce the squash varieties “Solnishko” and “Sambbrero” into production, they were planted and cultivated in the fields of the “Choriyorov Eliyor” farm in the Shorchi district of the Surkhandarya region.

Keywords: squash-zucchini crop, Solnishko, Sambbrero, standard variety, biometric indicators, comparative analysis, economic efficiency.

KIRISH

Sabzavotlar alohida ahamiyatga ega qimmatli oziq-ovqat mahsulotidir. Sabzavotlarning oziq-ovqatdagi ahamiyati va almashtirib bo'lmaydiganligi shundaki, ular tirik organizmning normal faoliyati uchun zarur bo'lgan uglevodlar, vitaminlar, efir moylari, mineral tuzlar, fitontsidlar va xun tolasining asosiy yetkazib beruvchilari hisoblanadi (Litvinov S.S., 2008).

Sabzavotlar assortimentini kengaytirish, yilning hamma fasllarida (yoz-kuz davrlari) mahsulot olish va ularni iste'mol qilishda patisson sabzavot ekinini yetishtirishga katta qiziqish



uyg'otadi. FAO ma'lumotlariga ko'ra, "Qovoqdoshlar oilasiga mansub, kabachki va patisson mevalarini ishlab chiqarishda Xitoy (7,2 mln. t.), Hindiston (4,9 mln. t.), Ukraina (1,27 mln. t.), Rossiya (1,128 mln. t.), AQSh (1,05 mln. t.) va Eron (0,9 mln. t.) davlatlarida keng miqyosda yetishtirilmoqda".

Tadqiqotlar Surxondaryo Ilmiy Tajriba Stansiyasida olib borildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarida PF-60-sonli «2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi farmonida belgilab berilgan 3 ustuvor yo'nalishi maqsadida «Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish» vazifasi qo'yilgan. Buning uchun iqtisodiy foydali xususiyatlari qonuniyatlarini bilish, N.I.Vavilovning so'zlariga ko'ra, "seleksiya ishini genetik jihatdan yanada mazmunli qiladi" (Texanovich G.A., 2004).[1] Ammo, bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar talab darajasida emas. Shannon S., Robinson R.W.larning fikricha patissondagi turli xil shakllar o'z-o'zidan paydo bo'ladigan mutatsiyalar, shu jumladan erkak bepushtligi bo'lgan shakllar tufayli genetik jihatdan paydo bo'lishi mumkin.[2].

Makarova N.S., Korostelyova L.A.lar tomonidan o'tkazilgan tajribalarda patisson urug'larining biologik sifatiga agrotexnika, oziqlantirish va changlanish usullarining ta'siri o'rganilgan. [9]. Mahalliy ilmiy manbalarda esa, G'aybullayev A. (2017), Karimov S.A., Maxmudov N.lar tomonidan patissonning O'zbekiston sharoitidagi vegetatsiyasi, unuvchanlik ko'rsatkichlari, agrofond sharoitida meva va urug' hosili shakllanishi borasida dastlabki tadqiqotlar e'lon qilingan.[3]

Dyutin K.E., Puchkov M.Yu.larning fikricha genetik belgilar ishlab chiqarishda duragay o'simliklarni gibrid bo'lmagan o'simliklardan ajratish imkonini beradi [4]. Bundan tashqari boshlang'ich manbani yaratish va uni baholash (biotexnologiya, molekular metodlar) sohasida ham jiddiy orqada qolish kuzatilmoqda. Alohida belgilarning irsiyat xarakteri haqidagi ishonchli ma'lumotlar patisson navlarini tanlash usullarini takomillashtirish va qisqa vaqt ichida bu ekinlarning yangi yaxshilangan navlari va geterotik duragaylarini yaratish imkonini beradi (Kvasnikov B.V., 1968).[5]

M. Gneyshuk, B. Vuysik-Stopchinska, G. A Texanovlar tomonidan esa uning mevasi tarkibidagi kerakli vitaminlar, minerallar aniqlanib uning parhezlik va dorivorlik xususiyatlari hamda xalq xo'jaligidagi ahamiyati o'rganilgan[6]. Turkiyalik olimlar R. Grumet, N. Katsir, X. G.Mas, Koreyalik seleksionerlar Dr.Sang-Hoon Lee, Dr. Kyuying -Soo-Kim, Dr.Jong-Soo lee lar tomonidan agrotexnikasi hamda seleksiya va urug'chiligi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Biroq, mamlakatimizda patisson bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari qisman amalga oshirilgan. Patissonning mahalliy navini yaratishda O'zbekistonda Sh. Jabborov ish olib borgan. N.N. Balashev, M.N. Kulakova, V.I. Zuyev va X.Ch. Bo'riyevlar tomonidan navlarni tanlash, ekish muddati va sxemalarini ishlab chiqishga oid tadqiqotlar olib borilgan.[7].

Mazkur tadqiqotning maqsadi: Solnishko va Sambrero patisson navlarining hosildorligini standart Oq-13 naviga nisbatan baholashdi

Tadqiqot obyekti. Tadqiqot obyekti sifatida patissonning quyidagi navlari tanlandi: Oq-13 (standart nav), Solnishko, Sambrero. O'simliklarning o'sishi va rivojlanishi kuzatildi hamda hosildorlik ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi. Baholashda quyidagi ko'rsatkichlar inobatga olindi: bitta o'simlikdan olingan meva soni (dona), bitta mevaga to'g'ri keladigan o'rtacha massa (g), umumiy hosildorlik (t/ga).

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot uchun olib borilgan tajribalar «Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi» (Azimov B.J., Azimov B.B., 2002), «Методика полевого опыта в овощеводстве и бахчеводстве» (Белик В.Ф., 1992) va «Методические

указания ВИР по изучению и поддержанию мировой коллекции тыквенных культур (патиссон)» (1977) uslubiy qo‘llanmalari asosida olib borildi, tadqiqot natijalarining statistik tahlili «Excel 2010» va «Statistica 7.0 for Windows» kompyuter dasturida, 0,95% ishonchlik oralig‘i bilan «Методика полевого опыта» (Доспехов Б.А., 1985) dispersion usuli bo‘yicha hisoblandi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, barcha o‘rganilgan navlar o‘sish va rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha bir-biridan farq qildi.

1-jadval. Patisson navlarining hosildorlik ko‘rsatkichlari

№	Nav nomi	Meva soni (dona/o‘simlik)	Meva massasi (g)	Hosildorlik(t/ga)
1	Oq-13(st)	8,2	320	18,5
2	Solnishko	9,6	340	21,8
3	Sambrero	9,1	335	20,9

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Solnishko nava mansub o‘simliklarda meva soni va umumiy hosildorlik eng yuqori bo‘ldi. Ushbu nav standart Oq-13 nava nisbatan 3,3 t/ga ko‘proq hosil berdi. Sambrero nava mansub o‘simliklar ham standart navdan ustun bo‘lib, hosildorlik farqi 2,4 t/gani tashkil etdi.

2-jadval. Patisson navlarining fenologik rivojlanish ko‘rsatkichlari

Nav nomi	Nihollarning unib chiqishi (kun)	Gullash boshlanishi (kun)	Meva berish boshlanishi (kun)
Oq-13 (st)	7–8	35	42
Solnishko	6–7	32	39
Sambrero	6–7	33	40

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Solnishko va Sambrero navlari standart Oq-13 nava nisbatan 2–3 kun ertaroq meva bera boshlagan.

3-jadval. Patisson navlarining biometrik ko‘rsatkichlari

Nav nomi	O‘simlik bo‘yi (sm)	Barglar soni (dona)	Meva soni (dona/o‘simlik)
Oq-13 (st)	58,4	18,6	8,2
Solnishko	62,7	20,1	9,6
Sambrero	60,9	19,4	9,1

Biomassaning faol shakllanishi Solnishko navida kuchliroq bo‘lib, bu uning yuqori hosildorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan.

4-jadval. Patisson navlarining hosildorlik ko‘rsatkichlari (standart bilan taqqoslaganda)

Nav nomi	Meva massasi (g)	Hosildorlik (t/ga)	Standartga nisbatan farqi (± t/ga)
Oq-13 (st)	320	18,5	–
Solnishko	340	21,8	+3,3
Sambrero	335	20,9	+2,4

Eng yuqori hosildorlik Solnishko navida qayd etilib, u standart Oq-13 nava nisbatan 17,8 % yuqori natija ko‘rsatdi.

XULOSA



1. Tajriba ishlari ochiq dala sharoitida olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida patissonning quyidagi navlari tanlandi: Oq-13 (standart nav), Solnishko, Sambrero.
2. Solnishko va Sambrero patisson navlari hosildorlik ko'rsatkichlari bo'yicha standart Oq-13 naviga nisbatan ustunlik qildi.
4. Eng yuqori hosildor deb tanlangan Solnishko navi 2024 yilda Surxondaryo viloyati Sho'rchi tuman «Choriyorov Eliyor» nomli fermer xo'jaligi dalalariga 0.2 ga yerga ekilib parvarishlandi.
5. Patissonning "Sambrero" (oq rangli) navidan 0.51 tonna, Solnishko (sariq) navidan 0.49 tonna sifatli urug' olindi va 41018 ming so'm/ga sof daromad olishga erishildi. Rentabillik darajasi Sambrero navida 71 % , Solnishkoda 95% bo'lishiga erishildi.
6. Ushbu navlar janubiy tuproq-iqlim sharoitida ekish uchun istiqbolli hisoblanadi va ishlab chiqarishga tavsiya etilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kenjayeva T.R., N.J.Nurmatov. Patisson (Cucurbita pepo var. melopepo) o'simligining xalq xo'jaligidagi ahamiyati. O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi jurnali. 2025 yil 6-son 43-46 betlar.
2. Kenjayeva T.R. Создание исходного материала для селекции растения патиссон (Cucurbita pepo var. melopepo L) и разработка элементов семенной технологии. Хоразм Мамун akademiyasi axborotnomasi
3. № 3 soni Noyabr, 2023 yil.
4. Kenjayeva T.R., Sanoqulova M. Qovoqdosh ekin patissonning kimyoviy tarkibi va foydali xususiyatlari. INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY SCIENCE ICMS FULL ISSUE-4. 31. 10. 2023
5. Dusmuratova S.I., Hakimov R.A., Aripova Sh.R. Qovoqcha (Cucurbita pepo L.) mevalari va urug'larini yetishtirish texnologiyasi bo'yicha tavsiyanoma. Toshkent, 2020. – 18 b.
6. Qodirov R.Q. Sabzavot ekinlari navshunosligi – Toshkent, 2018.
7. Briefing, V. Zuyev, A. Dirie, M. Mukhamedov, National Encyclopedia of Uzbekistan, 478 (Sharq Press, Tashkent, 2002)
8. Чернявская, О.В. Перспективы гибридного семеноводства кабачка и патиссона в Нечерноземной зоне России
9. В.А. Лудилов, О.В. Чернявская, М.В. Долженко // Современное состояние и перспективы развития овощеводства и картофелеводства. - Барнаул, - 2007. - С. 388-391.